

KASB-HUNAR MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O'RGGATISHDA YOZMA NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Raufova Movluda Nurxonovna

Toshkent Davlat Texnika Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Kasbiy ta'lim tizimida xorijiy ta'lim dasturlarini integratsiyalash, xalqaro mehnat bozorlari talablaridan kelib chiqib o'quvchilarni kasb-hunar bilan birgalikda xorijiy til ko'nikmalarini ham rivojlanirish bugungi kun talabiga aylanib ulgurdi. Biz ushbu maqolada o'quvchilarga ingliz tili fanini innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali o'rnatish va ularda bu tilni o'rghanishga qiziqish uyg'otish omillarining ilmiy-nazariy tomonlari yuzasidan olim va pedagoglarning fikr-mulohazalari, ilmiy qarashlari tahlilini keltirgan holda, asosan yozma nutqni rivojlanirishga doir takliflarni keltirib o'tishga harakat qildik. Tadqiqot mavzusiga oid tahlillarimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni xorijiy tillarni bilish ko'nikmalari orasida yozma nutq muhim shuningdek o'zlashtirilishi biroz murakkab jarayon hisoblansada, kasbiy faoliytani yo'lga qo'yish, karyera jarayonlarining eng muhim omili hamdir.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, chet tillarni o'qitish metodologiyasi, yozma nutq, o'qish va tinglash, nutq va kommunikativ kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, suhbat va tariqa.

Аннотация: Интеграция зарубежных образовательных программ в систему профессионального образования, развитие у учащихся навыков владения иностранным языком наряду с профессией, исходя из требований международных рынков труда, стали требованием сегодняшнего дня. В данной статье мы попытались представить предложения по развитию письменной речи, приведя анализ мнений и научных взглядов ученых и педагогов на научно-теоретические аспекты обучения учащихся английскому языку с помощью инновационных технологий и интерактивных методов и факторов, вызывающих у них интерес к изучению этого языка. Результаты нашего анализа по теме исследования показывают, что письменная речь важна среди навыков владения иностранными языками учащимися, а также, хотя ее освоение считается

несколько сложным процессом, налаживание профессиональной деятельности также является важнейшим фактором карьерных процессов.

Ключевые слова: профессиональное образование, методология обучения иностранным языкам, письменная речь, чтение и аудирование, речевая и коммуникативная компетенция, инновационные технологии, беседа и порядок.

Annotation: The integration of foreign educational programs into the vocational education system, the development of students' foreign language skills along with their profession, based on the requirements of the international labor market, has become a requirement of today. In this article, we tried to present proposals for the development of written speech, citing the analysis of the opinions and scientific views of scientists and educators on the scientific and theoretical aspects of teaching English to students through innovative technologies and interactive methods and the factors of arousing their interest in learning this language. The results of our analysis of the research topic show that among students' foreign language proficiency skills, written speech is important, and although its acquisition is considered a somewhat complex process, the establishment of professional activity is also the most important factor in career processes.

Keywords: professional education, foreign language teaching methodology, written speech, reading and listening, speech and communicative competence, innovative technologies, conversation and methodology.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish, xalqaro xorijiy til sertifikatlarini barcha ta'lim bosqichlarida joriy qilish va sertifikatga ega pedagog hamda o'quvchilarga turli ta'limiy, moliyaviy imtiyozlarni joriy etish tartibi mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitishning yangicha yondashuviga shunignde xalqaro mehnat bozorida faol ishtirok etishga qo'yilgan katta qadamlardan bir bo'ldi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 11-iyuldagagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-son Farmonida "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida zamонавиy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish; zamонавиy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va chet tillarini chuqr

o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlashning yuqori darajasi va sifatini ta'minlash; ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va o'qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy shakllari va axborotkommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o'quv jarayonini sifat jihatidan yangilash; oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni keng jalb etish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash" kabi qator vazifalar belgilangan.[1] Har bir o'qituvchi ingliz tili o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarnung shaxs sifatida shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi va uni egallahga sharoit yaratadi. Til o'rghanish asosida o'quvchi, ingliz tilining grammatikasini bilgan holda tafakkur qilishi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda ifoda eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ingliz tili darslarini ilg'or zamonaviy usullar, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarni qo'llab tashkil qilish ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda, og'zaki va yozma nutqini o'stirishda muhim o'rinni egallaydi. O'quvchi yoshlarga ingliz tilini o'rghanishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ulardagi mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, qo'llab-quvvatlash ishlarini olib borish bu tilni tezroq o'rghanishga yordam beradi. Tadqiqot ishlari tahlili ahuni ko'rsatmoqdaki o'quvchilarni ingliz tilini o'rghanishga oid quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- ✓ til o'rghanishda an'anaviy manbalarga tayngandan ko'ra turli elektron manbalar bilan ta'minlash ishlarini olib borish;
- ✓ barcha ta'lim muassasalarida til o'rgatish va mustaqil til o'rghanish bo'yicha metodik ta'minotni yaratish;
- ✓ mavjud o'qitilayotgan darsliklardan foydalanish samaradorligini oshirish, zarur hollarda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish;
- ✓ xorijiy stajirovkalarini tashkil etish orqali dars jarayoniga kuchli va malakali mutaxassislarni jalb qilish;

- ✓ o'quv jarayoniga o'quvchi qiziqishi, moyilligini oshiruvchi, o'zlashtirishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi yangi ta'lism texnologiyalarining yetarli darajada joriy etish;
- ✓ xorijiy til sertifikatiga ega o'quvchilarni shuningdek kundalik ta'lism jarayonlarida ham o'quvchilarni rag'batlantirish ishlariga e'tibor qaratish va baholash tizimi sifatini nazorat qilish.[2]

Yozish ko'nikmalari bevosita o'qish bilan juda chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. O'qish orqali fikr, dunyoqarash shakllanadi va ularning uumlashuvi negizida bitta grafik til tizimi rivojlanib boradi. Grafik belgilar ya'ni harflar, so'zlar yordamida fikrlarni ifodalashda fikrlarimiz harflar, belgilar bilan kodlansa, o'qish paytida grafik belgilar odatiy holga qaytadi.[3] Agar pedagog yozish va yozishni o'rgatish maqsadlarini to'g'ri belgilab, yozuvning boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishdagi rolini hisobga olgan holda, mashqning to'liq mos maqsadlaridan foydalansagina, o'rghanishning har bir bosqichida yozish amallarini bajartirib, og'zaki nutqni asta-sekin boyitib borsagina yozma nutq bilan bog'lanish mantiqiyroq kechadi. Yozish ko'nikmalari o'quvchilarda boshlang'ich bilimlarni egallashda shakllansada, biroz murakkab bosqichligi sabab dastlab nusxa ko'chirish orqali yoki turli yozish topshiriqlarini bajarish orqali qo'shimcha rivojlantirishga ehtiyoj sezamiz. Keyinchalik esa topshiriqlar o'rnini ijodkorlikni talab qiladigan vazifalar egallab, grammatik hamda yozma mahoratni rivojlantirishga yordam beradi va bularning barchasi yodlash uchun ma'lum shartlarni tashkil qiladi. Yozma ishsiz o'quvchilarning leksik va grammatik materialni yodlab olishlari juda qiyin. Yozma nutqni samarali o'stirish, zaruriy malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq:

Kunlik yozma ish topshiriqlarida doimiy o'rghanilayotgan mavzu ma'lumotlaridan foydalaning;

leksik, imlo va grammatik me'yorlarga muvofiq yozish qoidalarini doimiy boyitib boring;

yozish ko'nikmasini rivojlantirishda muloqotning muayyan shakliga xos bo'lган nutq qoliplari, formulalar to'plamidan foydalaning;

qisqa insho, esselar tashkil qiling, o'quvchilardan essedagi ma'lumotlarni aniq va ravshan ifodalashni shuningdek mantiqiy izchilikka amal qilishlarini talab qiling.

O'quvchilarning imlo ko'nikma va malakalarining ma'lum darajasiga erishgandagina ular uchun yozuv qobiliyati samarali o'quv quroliga aylanishi mumkin.[4]

Ingliz tili darslarining sifat va samaradorligini nazoratga olish, o'quvchilardagi og'zaki va yozma nutq rivojlanishi belgilarining murakkablashib borishi bilan namoyon bo'ladi. Darsda innovatsion texnologiyalardan foydalanish til o'qitish va o'rgatish vositasi sifatida baholash ko'plab ijobiy natijalarni, afzalliklarni yuzaga kelishiga yordam beradi. Innovatsiya (inglizcha "innovation") – mabjud holatga yangilik kiritish yoki tubdan yangilashdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda eng ahamiyatli jihatga ega. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlashga asoslangan, barcha o'quvchilarni faollikka chorlovchi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, zamonaviy ta'lim nazariyasi mazmuninng ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Interaktiv metodlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilar bilan hamkorlikda, birgalikda faoliyat olib borishi vositasida amalga oshiriladi. Bu kabi hamkorlikdagi faoliyat o'quvchilarning bilimini kengaytirishga, kommunikativ va nutqiy kompetensiylar rivoji uchun asos bo'ladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning tafakkuri, tasavvurlari, dunyoqarashi, qiziqishlarini orttirish bo'yicha olib borilgan ishlarda o'z ifodasini topadi. Ingliz olimi Makkartining ta'kidlashicha, "chet tillarini o'qitish metodologiyasi o'tgan yarim asr davomida juda rivojlandi. Turli vaqtarda o'rgatish jarayonlari grammatik tarjima, audiolingistik tuzilish, global audiovizual, induktiv/deduktiv, funksional, g'oyaviy, situatsion, kommunikativ, immersiya, o'rganish/olish, tavsiya va boshqalarda olib borilgan". Binobarin, dars jarayonida audiovizual vositalardan foydalanish natijasida xotirada so'zlarning semantik ma'nosini yodda saqlash va leksik birliklarni qo'llash ko'nikmasi takomillashadi. Ilg'or zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlar o'quvchi-yoshlarning yuqori darajada bilimli, keng darajada yuqori malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi .Shuni aytish lozimki, o'quvchilar ingliz tilini o'rganishlari uchun bu tilning grammatikasi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi uchun ular, avvalo, o'z ona tilining grammatikasini yetarli darajada bilishi va jonli nutqda to'liq rioya qilishi bilan zarurdir. Xususan, o'quvchilar

nutqida faol bo'lgan leksik birliklardan biri bu olmosh sanaladi. Dastavval, olmosh haqida ona tili grammatikasidagi bilim, ko'nikmalar hosil qilingan bo'lsa, ingliz tilida shu mavzuni oson tushunib yetadi.

"Ingliz tilida ham o'zlik olmoshi mavjud. Ingliz tilida o'zlik olmoshi egalik olmoshlariga (my, your, your, her) va kishilik olmoshlariga (him, it, them) -self so'zi qo'shish orqali yasaladi. O'zbek tilida ushbu so'z o'z so'ziga tog'ri keladi"1. O'zaro suhbat va matn yaratishda, o'zlik olmoshi bilan hosil qilinadigan tobe bog'lanishni mustaqil tuza oladi. Lekin o'quvchilar nutqida ayniqsa frazeologiyaning ingliz tilidagi tarjimasi biroz qiyinchilik tug'diradi[5].

Ingliz tilini o'rgatishda yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning tilni amalda, ya'ni yozma shaklda, jumladan, eshititing, yozing, o'qing va gapiring, ko'nikmalari bilan ishlatish imkoniyatini kengaytiradi.

Yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi topshiriqlar to'plami yoki vazifalarini bajarish yaxshi samaradorlikka ega ekanligi xorijiy olimlar tomonidan asoslangan:

Doimiy amaliyotda qo'llash - yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarga tilni haqiqiy muloqotlarda, masalan, emailing, blog yozish yoki maqolalar o'qishda qo'llash imkoniyatini beradi.

Turli kundalik yangiliklar, turli ma'lumotlarni o'qish - yozma nutq ko'nikmalari o'quvchilarga turli xildagi yozma materiallarni, jumladan, maqolalar, kitoblar va internet sahifalarini tushunishga yordam beradi.

Ko'proq fikrlarini yozma ifodalashga undash - o'quvchilar yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'z fikrini, qiziqishini va tushunishini yozma shaklda ifodalash imkoniyatini oshiradi.

Qiyinroq mavzularni o'qigandan so'ng qayta yozib chiqish - yozma nutq ko'nikmalari o'quvchilarga murakkabroq tushunmaslik bo'lgan mavzularni o'rganishda ham yordam beradi.

Yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning bir nechta noan'anaviy tavsiya etildigan usullari ham mavjud bo'lib, ular:

Kunlik takrorlanuvchi yozma mashqlar – o'quvchilarga turli xildagi yozma mashqlar, masalan, qisqa hikoyalar, esselar, muloqotlar va xulosalar yozish vazifalari berish.

Tariqalar - Internet, turli ijtimoiy tarmoqlarda postlar yozish, o'zaro yozma muloqotni yo'lga qo'yish - o'quvchilarga yozma faoliyatlar, masalan, internet sahifalarini o'rganish, maqolalar o'qish, blog yozish va filmlarni sharhlash vazifalari berish.

Suhbat yoki yuzma-yuz intervyular - o'quvchilarga yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi suhbatlar, masalan, o'z fikrini ifodalash, muloqot qilish va fikrlash.[6]

Yuqoridagilardan shuni xilosa qilishimiz mumkinki, o'quvchilarga ingliz tilini innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali o'rgatish, bu jarayonda internet, turli raqamli texnologiyalarni faol qo'llashimiz ularda bu tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, mavzular yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalar hosil bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 11.07.2019 yilda "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-son Farmoni.

2. D.B.Muminova., D.I.Normatova Nofilologik institut talabalari uchun ingliz tili grammatikasidan uslubiy qo'llanma.- Toshkent 2016.56-bet.

3.Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy.
– NY.: Longman, 2007. – P: 152-153.

4. Botirova A.A., Solovova E.N. Chet tillarni o'qitish metodikasi. Murakkab kurs:
darslik. - 4-nashr. – M-T.: AST-Astrel, 2020.

5. F.Salomov Til va tarjima. -Toshkent., "Fan", 1966., -239-bet.

6. Berman I. M. (2020) Reading as a subject of education and as a psycholinguistic process. - In the book: Methods of teaching a foreign language at the university

Internet saytlari

7. <https://lex.uz/docs/-4415388>

8. <https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/82369>
9. <https://www.teach-this.com/uz/ideas/developing-spoken-english>
10. <https://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/1409/2072>